

O'ZBEKISTONDA NAZORAT TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA FUQAROLIK JAMIYATI NAZORATINING UYG'UNLASHUVI VA ROLI

Jomonqulov Bekzod Shokir o'g'li.

Guliston davlat universiteti III bosqich tayanch doktoranti

Tel. +99894 003-52-51

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati va davlat nazorati o'rtasidagi o'zaro integratsiya hamda nazorat tizimining rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi muhimligi, jamoatchilik nazorati va davlat nazorati uyg'unligining ijtimoiy barqarorlik hamda samarali boshqaruvga ta'siri yoritiladi. Xalqaro tajriba asosida fuqarolik jamiyati ishtiroki korrupsiyaga qarshi kurash va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatiladi. Maqolada shuningdek, O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi islohotlar natijalari va dolzarb vazifalar muhokama qilingan hamda nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, davlat nazorati, jamoatchilik nazorati, integratsiya, nazorat tizimi, demokratiya, oshkoraliq, hisobdorlik, korupsiyaga qarshi kurash, xalqaro tajriba, O'zbekiston, qonunchilik, fuqarolik ishtiroki, nazorat mexanizmi

Аннотация. В данной статье анализируются особенности взаимной интеграции гражданского общества и государственного контроля, а также развитие системы надзора. Подчеркивается важность сотрудничества государственных органов и институтов гражданского общества, влияние гармонизации общественного и государственного контроля на социальную стабильность и эффективное управление. На основе международного опыта показано, что участие гражданского общества способствует повышению эффективности государственного управления и борьбе с коррупцией. Также обсуждаются результаты реформ в этой сфере в Узбекистане и актуальные задачи, сделаны выводы по совершенствованию системы контроля.

Ключевые слова: гражданское общество, государственный контроль, общественный контроль, интеграция, система надзора, демократия, прозрачность, подотчетность, борьба с коррупцией, международный опыт, Узбекистан, законодательство, сотрудничество, гражданское участие

Annotation. This article analyzes the mutual integration of civil society and state oversight, as well as the development of the oversight system. The importance of cooperation between state bodies and civil society institutions, and the effect of harmonizing public and state control on social stability and effective governance, are

highlighted. Based on international experience, it is shown that civil society participation increases governance effectiveness and aids anti-corruption efforts. The article also discusses reform outcomes in Uzbekistan and current challenges, concluding with recommendations for improving the oversight system.

Keywords: civil society, state oversight, public oversight, integration, oversight system, democracy, transparency, accountability, anti-corruption, international experience, Uzbekistan, legislation, cooperation, civic participation

Kirish. Demokratiyaning samaradorligi nafaqat davlat hokimiyatini shakllantirish, balki uni xalq tomonidan nazorat qilish imkoniyati bilan belgilanadi [1, p. 74]. Agar xalq faqat hokimiyatni saylab, uni nazorat qilmasa, davlat hokimiyatni xalq manfaatlarini ifodalashni to‘xtatib, oxir-oqibat mutlaq hokimlikka og‘ib ketishi mumkin. Shu bois, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar doirasida davlat organlari faoliyati ustidan jamiyat nazoratini samarali tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Birinchi Prezident I.A. Karimov ilgari surgan “kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyili hamda 2010-yilda e’lon qilingan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasida fuqarolik jamiyatni nazoratini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan edi [2, b. 5]. Keyingi yillarda qabul qilingan 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot dasturlari doirasida ham davlat va jamiyat o‘rtasida nazorat mexanizmlarining muvozanatiga erishish, kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari birinchi o‘ringa qo‘yildi. Davlat boshqaruvida oshkoraliq tamoyilini qaror toptirish maqsadida ochiqlik, axborot olish erkinligi va korrupsiyaga qarshi kurashga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 2018-yilda “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi maxsus qonunning qabul qilinishi fuqarolar va fuqarolik institutlari ishtirokini ta’minalash uchun muhim huquqiy poydevor yaratdi. Biroq, jamiyat nazoratini amalda samarali yo‘lga qo‘yish jarayoni qonunchilik bazasini yaratish bilan birga fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongi va faolligini oshirishni talab qiladi. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati va davlat nazorati uyg‘unlashuvining nazariy va huquqiy asoslari hamda xalqaro tajribasi tahlil qilinib, samarali nazorat tizimini shakllantirish omillari yoritiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda fuqarolik jamiyati va davlat nazorati integratsiyasini o‘rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Demokratiya va nazorat tizimi nazariyalarini tahlil qilish, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar qonunchiligin qiyosiy o‘rganish hamda nazorat amaliyotini solishtirish usullari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi. Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalardagi konseptual yondashuvlar ham ko‘rib chiqilib, nazorat tizimining tarkibiy tuzilmasi va funksiyalari tahlil qilindi. Shuningdek, tarixiy va mantiqiy tahlil, sistemali yondashuv hamda tahlil-sintez kabi umumilmiy usullardan foydalanildi.

Natijalar. Nazorat tizimi jamiyat va davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadigan tarkibiy qism bo‘lib, uning yordamida qabul qilingan qonunlar va qarorlar ijrosi ta’minlanadi, qonuniylik va intizom ustidan kuzatuv olib boriladi. Tadqiqotchilar fikricha, nazorat jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy vositalardan biridir [3, b. 13]. Demokratiya sharoitida nazorat tizimi keng qamrovli bo‘lib, uni ikki asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin: davlat nazorati va jamoatchilik nazorati. Davlat nazorati maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan jamiyatda qonuniylikka rioya etilishini tekshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan rasmiy faoliyatni anglatadi [3, b. 15]. Jamoatchilik nazorati esa bevosita fuqarolar va ularning birlashmalari tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy nazorat shaklidir. Fuqarolik jamiyati va davlat nazorati nazorat tizimining ajralmas tarkibiy qismlari bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilgandagina ijtimoiy boshqaruv samaradorligini ta’minlaydi. Shu bois samarali boshqaruv uchun davlat nazorati bilan fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan olib boriladigan jamoatchilik nazorati uyg‘unligi zarurdir. Xususan, rus olimi A.B. Vengerov davlat hokimiyati tizimida nazorat funksiyasining alohida o‘rni borligini ta’kidlaydi [4, c. 22].

Fuqarolik jamiyati odatda davlatdan mustaqil ravishda shakllanuvchi ijtimoiy munosabatlar va institutlar majmui sifatida izohlanadi. Masalan, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da fuqarolik jamiyati davlatdan tashqari shakllanadigan va fuqarolarning manfaatlarini ifoda etuvchi tuzilmalarни qamrab oluvchi ijtimoiy hayot sohalari majmuasi deb ta’riflangan [5, b. 112]. Boshqa manbalarda esa bu tushuncha jamiyat a’zolarining ixtiyoriy birlashmalari orqali ijtimoiy hayotda erkin ishtirok etish tizimi sifatida talqin etiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahalla), mustaqil ommaviy axborot vositalari va shu kabi tuzilmalar kiradi. Ular fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalash kabi vazifalarni bajaradi. Ayni paytda fuqarolik jamiyati institutlari davlat hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali boshqaruv jarayonlarining oshkorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqillikning ilk davrida O‘zbekistonda davlat nazorati tizimi nisbatan kuchli bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutsional jihatdan zaif edi. Shu bois oxirgi yillarda amalga oshirilgan siyosiy-huquqiy islohotlar quyi bo‘g‘inda jamoatchilik nazoratini shakllantirish va fuqarolar faolligini oshirishga yo‘naltirildi. 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi va ushbu yo‘nalishda 2018-yil 12-aprelda “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning maqsadi davlat organlari va ularning mansabдор shaxslari faoliyati ustidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari hamda

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan ochiq va qonuniy nazoratni ta’minlash orqali davlat boshqaruvida shaffoflik, hisobdorlik va ijtimoiyadolatni kuchaytirishdan iborat [6, b. 2]. Qonunning 5-moddasida jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari – qonuniylik, oshkorlik, fuqarolarning huquq va manfaatlari ustuvorligi, ishtirok etish ixtiyoriyligi, xolislik, natijadorlik va mas’uliyat kabi tamoyillar mustahkamlab qo‘yilgan [6, b. 3].

Ushbu qonun jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning aniq shakl va mexanizmlarini ham belgilab berdi. Xususan, fuqarolar va ularning birlashmalari davlat organlari faoliyatiga doir ma’lumotlarni so‘rash (so‘rovlar), jamoatchilik muhokamalari va eshituvlarini o‘tkazish, davlat organlari faoliyatini monitoring qilish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazish kabi jamoatchilik nazorati vositalardan foydalanish huquqiga ega bo‘ldi. Shuningdek, qonunda jamoatchilik nazorati subyektlari va davlat organlarining bu boradagi huquq va majburiyatları batafsil bayon etildi. Mazkur huquqiy mexanizmlar fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, boshqaruv jarayonlariga jamoatchilik ishtirokini kengaytirish uchun mustahkam institutsional zamin yaratdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jamoatchilik nazorati tizimining to‘laqonli faoliyat yuritishi jamiyatning siyosiy-huquqiy madaniyati va nazorat sohasidagi bilim darajasining yuksakligiga bevosita bog‘liqdir.

Dunyo tajribasi ham davlat va jamiyat o‘rtasidagi nazorat mexanizmlarining muhimligini tasdiqlaydi. Masalan, amerikalik olim R. Putnam Italiya mintaqalari misoldida fuqarolik jamiyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, mahalliy hokimiyat ishlarining samaradorligi ham shunchalik yuqori bo‘lishini ko‘rsatib bergan [7, p. 128]. BMT Taraqqiyot dasturining hisobotlarida ham yaxshi boshqaruv tamoyillarini ro‘yobga chiqarishda fuqarolar ishtiroki va hokimiyatning hisobdorligi hal qiluvchi omillar sifatida e’tirof etiladi. Ko‘plab demokratik davlatlar amaliyotida fuqarolik jamiyati vakillari va davlat hokimiyati o‘rtasida institutsional muloqot yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ombudsman instituti, mustaqil audit idoralari, jamoatchilik eshituvlari kabi vositalar orqali hokimiyat ustidan samarali monitoring yo‘lga qo‘yilgan. Xalqaro tashkilotlar (masalan, Parlamentlararo ittifoq va BMT) hujjatlarida parlament va fuqarolik jamiyati hamkorligini kuchaytirish demokratiyani mustahkamlashi ta’kidlanib, jamoatchilik nazorati va mustaqil jamoat institutlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi roli alohida qayd etiladi. Transparency International xalqaro tashkilotining 2020-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra esa fuqarolik jamiyati va mustaqil ommaviy axborot vositalari ishtiroki yuqori bo‘lgan mamlakatlarda korrupsiya darajasi sezilarli darajada past bo‘lishi aniqlangan [8, p. 5]. Mintaqamizda ham kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish masalasi dolzarb bo‘lib, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Qirg‘iziston kabi davlatlar tajribasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish barqaror taraqqiyotning muhim sharti sifatida e’tirof etilgan.

Muhokama. Umuman olganda, nazorat tizimining samaradorligi davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari o'rtasidagi teng muvozanat ta'minlanishiga bevosita bog'liq. Davlat nazorati va jamoatchilik nazorati uyg'un integratsiyada amalga oshirilgandagina hokimiyat ustidan to'laqonli nazorat o'rnatilib, ijtimoiy hayotda adolatli tartib qaror topadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda nazorat sohasida mustahkam huquqiy va institutsional zamin yaratildi, biroq jamoatchilik nazoratini amalda samarali yo'lga qo'yish uchun fuqarolarning siyosiy ongi va huquqiy bilim darajasini oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodni nazorat faoliyatining mazmun-mohiyati bo'yicha kengroq ma'lumotlantirish zarur. Fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan xabardorligi ortishi ularning jamoatchilik nazorati jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlaydi.

Davlat va fuqarolik jamiyatni o'rtasida o'zaro ishonch hamda hamkorlik muhitini shakllantirish nazorat tizimi integratsiyasining muhim shartidir. Davlat organlari jamoatchilik nazoratini rivojlantirish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi, fuqarolar va NNTlarning tanqidiy mulohazalari hamda takliflariga ochiq munosabatda bo'lishi lozim. Jamoatchilik nazorati natijalari bo'yicha davlat idoralarining hisobot berishi va javobgarlik tizimini yo'lga qo'yish hokimiyatni xalq oldida yanada hisobdor qiladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining erkin faoliyat yuritishi uchun sharoitlar yaratish, jumladan, so'z va matbuot erkinligini ta'minlash ham jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshiradi. Mustaqil ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda jamoatchilik nazoratining muhim vositalariga aylangan bo'lib, ular orqali fuqarolar davlat faoliyati yuzasidan o'z munosabatini bildirish imkoniga ega. Xulosa qilib aytganda, davlat hokimiyati organlari faoliyatida oshkorlik va ochiqlikni kuchaytirish, fuqarolar bilan muloqot mexanizmlarini takomillashtirish hamda xalqaro tajribada o'zini oqlagan ombudsman, jamoatchilik kengashlari kabi institutlarni rivojlantirish nazorat tizimi integratsiyasini yanada chuqurlashtiradi.

Xulosa. Fuqarolik jamiyatni va davlat nazoratini o'rtasidagi o'zaro integratsiyalashgan nazorat tizimi demokratik jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omilidir. Nazoratning davlat va jamoatchilik shakllarini uyg'unlashtirish orqali boshqaruvda oshkorlik va hisobdorlikka erishiladi, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi ortadi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyatni institutlarni rivojlantirish va ularning nazorat funksiyasini kuchaytirish borasida zarur huquqiy asoslar yaratilgan. Kelgusida bu sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish, xalqaro ilg'or tajribalarni mahalliy sharoitga mos qo'llash hamda jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirish orqali nazorat tizimining samaradorligini yanada oshirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dahl R.A. Polyarchy: Participation and Opposition. New Haven: Yale University Press, 1971.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
3. Safarov Q. Davlat nazorati va uning huquqiy asoslari. Toshkent, 2018.
4. Венгеров А.Б. Теория государства и права. – Москва: Юристъ, 2000.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” DINI, 2003.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni (2018 yil 12 aprel, O‘RQ-474-son).
7. Putnam R.D. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. Princeton: Princeton University Press, 1993.
8. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2020. Berlin: Transparency International, 2020.